



UDK: 81.1 (1)

Sabura XUDAYAROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: saburaxudayarova_95@gmail.com

ToshDO'TAU dotsenti I.Azimova tadrizi asosida

KO'ZI OJIZLARDA SO'Z MA'NOSINING O'ZLASHTIRILISHI: PSIXOLINGVISTIK NAZARIYALAR ASOSIDA TAHLIL

Annotatsiya

Mazkur maqolada ko'zi ojiz shaxslarda til o'zlashtirish, ayniqsa, so'z ma'nosining shakllanish jarayoni turli psixolingvistik nazariyalar – nativistik, kognitiv, ijtimoiy-interaktiv, funksional va distributiv yondashuvlar doirasida tahlil qilinadi. Turli olimlarning ilmiy qarashlari asosida ko'zi ojizlar so'z ma'nolarini qanday usullarda, qanday sezgi asoslarida o'zlashtirishi izohlanadi.

Kalit so'zlar: Ko'zi ojizlik, so'z ma'nosi, til o'zlashtirish, psixolingvistika, nativistik nazariya, kognitiv nazariya, ijtimoiy-interaktiv nazariya, funksional yondashuv, distributiv yondashuv.

WORD MEANING ACQUISITION IN THE BLIND: AN ANALYSIS BASED ON PSYCHOLINGUISTIC THEORIES

Annotation

This article analyzes the process of language acquisition in blind individuals, particularly the formation of word meanings, within the framework of various psycholinguistic theories: nativist, cognitive, socio-interactionist, functional, and distributional approaches. Based on the scientific views of different scholars, it explains the ways and sensory foundations through which blind individuals acquire word meanings.

Key words: Blindness, word meaning, language acquisition, psycholinguistics, nativist theory, cognitive theory, socio-interactionist theory, functional approach, distributional approach.

ОСВОЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА В СЛЕПОМ: АНАЛИЗ, ОСНОВАННЫЙ НА ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЯХ

Аннотация

В данной статье представлен психолингвистический анализ механизмов, посредством которых люди с нарушениями зрения усваивают и понимают значения слов в процессе освоения языка. В статье рассматривается зависимость значения слова от когнитивного, аффективного и сенсорного опыта, а также то, как этот процесс развивается в условиях зрительных ограничений, основываясь на точках зрения различных исследователей. В статье подчеркивается роль слухового, тактильного и кинестетического восприятия в формировании значения слова. На основе научных источников объясняется, как люди с нарушениями зрения воспринимают визуальные понятия, такие как «цвет», «свет» и «голубое небо».

Ключевые слова: Слепота, значение слова, усвоение языка, психолингвистика, нативистская теория, когнитивная теория, социально-интерактивная теория, функциональный подход, дистрибутивный подход.

Kirish. Ko'rish imkoniyatining yo'qligi inson hayotining barcha sohalariga, xususan, nutq va til rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'zi ojiz bolalarda tilni o'zlashtirish jarayoni o'ziga xos psixolingvistik xususiyatlarga ega. Bunday bolalar uchun vizual kontekst mavjud emas, shuning uchun ular tilni asosan eshitish, teginish, hid, ta'm va harakat orqali o'zlashtiradi. Nutq rivoji, birinchi navbatda, yaqin atrofdagi insonlarning muloqoti orqali amalga oshadi. Til o'zlashtirishda individual tajriba, hissiy idrok, holatlar asosida anglash muhim rol o'ynaydi. Ko'rish orqali shakllanuvchi umumiy tushunchalar (masalan, rang, harakat, fazoviy joylashuv) ular uchun boshqa idrok turlari yordamida hosil qilinadi. Psixolingvistik jihatdan ko'zi ojiz bola har bir so'zning ma'nosini kontekstda, eshituv asosida anglab, uni mustahkamlab boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'zi ojizlar uchun so'zlarning semantik mazmuni vizual emas, balki sezgi asosida shakllanadi. Har bir predmet, holat yoki harakat idrok etilishida taktil (teginish), eshituv, hid va hissiy tajriba asosiy rolni bajaradi. Masalan, 'yumshoq' so'zi — matoning fakturasi orqali, 'issiqlik' — temperatura asosida, 'og'ir' — uni ko'tarish orqali anglanadi. Ushbu sezgilar asosida so'zlar ongda jismoniy

tajriba bilan bog'lanadi. So'z ma'nosining shakllanishida ta'lim vositalari ham muhim: Brayl yozuvi, audiokitoblar, didaktik o'yinlar orqali bolaning lug'aviy zaxirasi kengayadi. Ko'zi ojiz bola uchun har bir so'zni obyekt bilan bog'lash, sezgi orqali tushunish va eshituv asosida mustahkamlash kerak. Bu metodlar bolaning so'z boyligini, tafakkurini va til kompetensiyasini shakllantiradi.

Ko'zi ojiz bolalar uchun eng murakkab masalalardan biri — mavhum tushunchalarni o'zlashtirishdir. Mavhum so'zlar, ya'ni real hayotda tajribalanmaydigan yoki bevosita sezilmaydigan tushunchalar (masalan, "quyosh", "nur", "rangi", "soya", "masofa") ko'rish orqali anglashni talab qiladi. Ushbu so'zlarni anglatishda maxsus metodik yondashuvlar zarur. Birinchi navbatda, hissiy va metaforik tushuntirishlar, ya'ni tanish his-tuyg'ular orqali mavhum so'zlarga izoh beriladi. Masalan, "quyosh" — bu issiqlik manbai, "ko'k rang" — sovuq suvga o'xshash. Bundan tashqari, dramatizatsiya, hikoya qilish, shaxsiy tajriba asosida vaziyatli kontekstlar orqali mavhum so'zlar tushuntiriladi. O'qituvchi uchun eng muhim maqsad — so'zlar orasidagi semantik bog'liqlikni bola sezgi orqali idrok qilishi uchun imkon yaratishdir.

Ko'zi o'z bolalarda til va so'z boyligini rivojlantirishda maxsus metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. O'qitish strategiyalari quyidagilarga asoslanadi: 1) Brayl yozuvini o'rgatish; 2) audiokitoblarni orqali og'zaki nutqni boyitish; 3) real predmetlar bilan amaliy mashg'ulotlar; 4) sezgi o'yinlari orqali kontekstual o'rgatish. Tadqiqotlar (masalan, Vygotskiy, Luriya, Thaler) shuni ko'rsatadiki, ko'zi o'z bolalar vizual ma'lumotlar o'rnini kompensatsiya qilish qobiliyatiga ega. O'zbekiston defektolog olimlari ham ko'zi o'z bolalar uchun integratsiyalashgan, sezgi asosidagi metodlar samarali ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi har bir so'zni bolaning shaxsiy tajribasiga bog'lash orqali uning tilni egallashiga yo'l ochadi.

So'z ma'nosining o'zlashtirilishi tilshunoslikning muhim muammolaridan biridir. Ko'rish cheklovi mavjud bo'lgan holatda bu jarayon yanada murakkablashadi. Shunday bo'lsa-da, ko'zi o'z insonlar ham tilni mukammal egallashi mumkin. Bu hodisani tushunishda psixolingvistik nazariyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Nativistik nazariya: Tabiiy til qobiliyati va ko'rish cheklovi Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan nativistik yondashuvga ko'ra, insonlar tug'ma til qobiliyatiga ega. Til o'zlashtirish biologik asoslangan bo'lib, bu qobiliyat "til o'rganish mexanizmi" (Language Acquisition Device – LAD) orqali amalga oshadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'zi o'z bolalar tilni ko'ruvga tayanuvchi vositalarsiz egallashlari, aynan nativizm nuqtayi nazaridan, tug'ma til qobiliyatining isboti bo'la oladi. Lila Gleitman o'zining tadqiqotlarida tug'ma til o'zlashtirish imkoniyatlari ko'rish cheklovi sharoitida ham to'laqonli ishlashini ko'rsatgan.

Nativistik nazariya – Chomsky nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, u bilan bir qatorda ko'plab tilshunslar, psixologlar va kognitiv olimlar ham bu yondashuvni rivojlantirgan yoki unga qo'shimcha qarashlar bildirgan.

* Eric Lenneberg (1967) o'zining "Biological Foundations of Language" asarida til biologik asosga egaligini va kritik davr gipotezasini ilgari surgan. Unga ko'ra, til faqat bolalik davrida to'liq o'zlashtirilishi mumkin.

* Steven Pinker (1994) "The Language Instinct" asarida tilni biologik instinkt sifatida izohlagan. U tilni inson ongiga xos evolyutsion moslashuv deb hisoblaydi.

* Jerry Fodor "Language of Thought" nazariyasini ishlab chiqqan. Ongning modulyar tuzilishi g'oyasini ilgari surib, til ham alohida modul sifatida mavjud, deb hisoblaydi.

* Ray Jackendoff tilning kognitiv tuzilmalarini o'rgangan. Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni nativistik doirada izohlagan.

* Elizabeth Bates va Brian MacWhinney garchi ular ko'proq kognitiv va interaktiv yondashuvlarga moyil bo'lsalarda, til rivojida tug'ma mexanizmlarning mavjudligini tan olganlar.

Nativistik nazariyaga ko'ra, ko'zi o'z o'zlik til o'zlashtirishga to'sqinlik qilmaydi, chunki til qobiliyati biologik jihatdan dasturlashtirilgan. Ijtimoiy-interaktiv nazariya: Muloqot va til rivojini o'zida aks etiradi.

Jerome Bruner va Lev Vygotskiyning ijtimoiy-interaktiv nazariyasiga ko'ra, til o'zlashtirish ijtimoiy muhit va muloqot asosida kechadi. Ko'zi o'z bola atrofdagilarning yordamida tilni eshitish, his qilish va kontekstual holatlar orqali o'zlashtiradi. Tilning rivoji – ijtimoiy faoliyat va madaniy muhit mahsuli. Bola kattalar bilan muloqot orqali nutqni egallaydi.

Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi nazariyasi bo'yicha, bola kattalarning yordami bilan o'z imkoniyatidan yuqori natijalarga erisha oladi [5].

* Jerome Bruner til o'zlashtirishda "scaffolding" (tayanch yordam) tushunchasini kiritgan. Ona-bola dialoglari bola uchun tilni ijtimoiy vazifalarda qo'llashga tayyorlovchi asosiy mexanizm. Til shunchaki qobiliyat emas, balki muloqot jarayonida shakllanadigan vosita. Bruner "format" degan tushunchani kiritgan: bu bolaning kattalar bilan takroriy muloqoti orqali tilni ichki tizimga joylashtirishidir [4].

* Catherine Snow nazariyasiga ko'ra, kattalar bolaga yo'naltirilgan, oddiy, takrorli va hissiy ohangdagi nutq orqali til o'rgatadi. Til o'zlashtirishning kaliti – ona-bola o'zaro suhbatlarining sifati va miqdorida.

* Annette Dunlea "Vision and the Emergence of Meaning" kitobida "Ko'zi o'z bolalar ham tengdoshlari kabi tilni o'zlashtiradi, lekin so'z ma'nosini shakllantirishda ko'proq ijtimoiy interaktsiyaga tayanadi. Til – o'zaro suhbatlar orqali ma'no qurilishi jarayonidir" deb yozadi [12].

* Perez-Pereira & Conti-Ramsden hammuallifligidagi "Language Development and Social Interaction in Blind Children" nomli asarda ko'zi o'z bolalarda til rivoji ijtimoiy interaktsiya bilan bevosita bog'liqligi va atrofdagilar bilan faol muloqot qila olgan ko'zi o'z bolalar nutq rivojida sog'lom tengdoshlariga yaqin natijalarga erishishi alohida ta'kidlanadi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy-interaktiv nazariya til rivojini individual tug'ma qobiliyatlardan tashqari, ijtimoiy interaktsiya, ota-ona nutqi va doimiy muloqotga bog'laydi.

Kognitiv nazariya: Aqliy rivojlanish va semantik struktura. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, til aqliy jarayonlar, ya'ni tafakkur, idrok, xotira va tasavvurga tayanadi. Ko'zi o'z o'zlar fazoviy, ob'ektiv va sensor tushunchalarni ko'rish orqali emas, boshqa sezgi kanallari orqali o'zlashtiradi. Piaget izohicha, so'z ma'nosining egallanishi — real voqelikni o'zlashtirish va tushunchalash jarayonining natijasi [6].

* Elizabeth Spelke fikricha, ko'rish cheklovi bilan tug'ilgan shaxslar ham fazoviy tushunchalarni shakllantira oladi, chunki bu aqliy strukturalar ko'rishga bog'liq emas [11]. Misol: "tepada", "pastda", "chapda" kabi so'zlar teginish va harakat orqali o'zlashtiriladi.

* Jerome Bruner tilni o'zlashtirishda tajriba va faoliyatning rolini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bola yangi tushunchalarni uch xil shaklda o'zlashtiradi: enaktiv (harakat orqali bilish), ikonik (tasvir orqali bilish), simvolik (til orqali bilish). Ko'zi o'z o'zlar ikkinchi bosqich – ikoniklik (vizual tasvir) cheklangan bo'lsa ham, ular eshitish va sezish asosida simvolik bilimni egallaydilar [4].

* Eleanor Gibson fikriga ko'ra, tilni o'zlashtirishda idrokning differensiallashuvi muhim. Ko'zi o'z bolalar ko'proq eshitish signallari orqali nutqiy differensiallashuvni amalga oshiradi.

Xulosa. Kognitiv yondashuvga ko'ra, til o'zlashtirish tafakkur asosida amalga oshadi va ko'rishsiz ham semantik tuzilmalar shakllanishi mumkin. Kognitiv nazariya tarafdorlari ko'zi o'z bolalarda til rivojlanishi ko'rish imkoniyati yo'qligiga qaramay, boshqa sezgi organlari orqali kompensatsiya qilinishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Funksional yondashuv: Til – faoliyat va ehtiyoj vositasi. Til – insonning asosiy muloqot vositasi bo'lib, u nafaqat grammatik tizim, balki ijtimoiy muhitda aloqa va faoliyatni ta'minlovchi quroldir. Funksional yondashuv tilni uning vazifalari orqali tushuntiradi. Ko'zi o'z bolalarda til o'zlashtirish jarayonida ko'rish imkoniyati cheklanganligi sababli, tilning kommunikativ va idrokni qoplovchi funksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Michael Halliday tilni ijtimoiy-semiotik tizim sifatida izohlab, bolaning nutqi dastlab oltita asosiy funksiyani bajarishini ta'kidlaydi: Instrumental, Regulyativ, Interaktiv, Personal, Evristik, Tasvirlovchi [7].

* Roman Jakobson tilni olti asosiy funksiyada ko'radi: emotsional, konativ, referensial, metalingvistik, poetik va fatik. Ko'zi ojiz bolalarda quyidagilar asosiy o'rinda turadi: Fatik funksiya – muloqotni boshlash va davom ettirish; Referensial funksiya – atrofdagi narsalarni nomlash; Metalingvistik funksiya – til birliklarining o'zini tushunish.

* Dell Hymes tilni faqat grammatik bilim emas, balki uni ijtimoiy vaziyatda to'g'ri qo'llash qobiliyati sifatida tushuntiradi.

* Charles Fillmore so'z ma'nolarini kognitiv freymlar va vaziyatlar bilan bog'liq holda izohlaydi. Ko'zi ojiz bolalar so'z ma'nosini kontekst orqali idrok etishadi.

Funksional yondashuv vakillari tilni faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy va kommunikativ hodisa sifatida tushunishadi. Distributsional yondashuv: So'z ma'nosi uning qo'llanishida Distributsional yondashuv tilshunoslik va psixolingvistikada muhim metodlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, so'z va til birliklarining ma'nosi ularning nutqdagi qo'llanish konteksti va boshqa birliklar bilan birgalikda uchrashish chastotasidan kelib chiqadi.

* Zellig Harris til birliklarini tahlil qilishda ularning kontekstdagi joylashuvini va qaysi birlik bilan yonma-yon kelishini asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

* J.R.Firthning mashhur g'oyasi – “so'z ma'nosi uning qo'llanishida” distributsional yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

* T.Landauer va S.Dumais kabi olimlarning Latent Semantic Analysis (LSA) nazariyasi distributsional asosga tayanadi. So'zning ma'nosi u bilan tez-tez uchraydigan boshqa so'zlar orqali aniqlanadi [13].

Distributsional yondashuv vakillarining g'oyalariga ko'ra, ko'zi ojizlar tilni o'zlashtirishda ko'proq eshitilgan nutqdagi takrorlanishlar, qo'llanish chastotasi va kontekstual bog'lanishlarga tayanib, so'z ma'nosini egallaydilar.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki:

Nativistik | Til o'zlashtirish tug'ma, ko'rish cheklovi to'sqinlik qilmaydi.

Kognitiv | Aqliy strukturalar ko'rishsiz ham shakllanadi.

Interaktiv | Muloqot va ijtimoiy aloqalar asosiy omil.

Funksional | Til – faoliyat va ehtiyoj vositasi sifatida qaraladi.

Distributsional | So'zlar kontekstdan kelib chiqib o'zlashtiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ko'zi ojiz shaxslarda so'z ma'nosining o'zlashtirilishi murakkab, ammo muvaffaqiyatli kechuvchi jarayon bo'lib, turli psixolingvistik nazariyalar bu jarayonni har xil jihatdan izohlaydi. Ushbu nazariyalar bir-birini to'ldirib boradi va umumiy manzara hosil qiladi: inson tug'ma til qobiliyatiga ega bo'lib, uni ijtimoiy muhit, sensor tajriba va aqliy rivoj asosida rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children.
3. Vygotsky, L.S. (1962). Thought and Language.
4. Bruner, J. (1983). Child's Talk: Learning to Use Language.
5. Gleitman, L. (1990). The Structural Sources of Verb Meanings.
6. Halliday, M.A.K. (1975). Learning How to Mean.
7. Harris, Z. (1951). Methods in Structural Linguistics.
8. Spelke, E. (1998). Nativism, Empiricism, and the Origins of Knowledge.
9. Kennedy, J.M. (1993). Drawing and the Blind. Yale University Press.